

**VETERINARIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

VETERINARIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI

G‘OYIBNAZAROV QILICH XUDOYBERDIYEVICH

QORAMOLLAR TEYLERIOZINING MAXSUS PROFILAKTIKASI

**03.00.06 – Zoologiya
(veterinariya fanlari)**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

G‘oyibnazarov Qilich Xudoyberdiyevich

Qoramollar teyleriozining maxsus profilaktikasi.....3

Гойибназаров Килич Худойбердиевич

Специфическая профилактика тейлериоза крупного рогатого скота.....21

Goyibnazarov Kilich Xudoyberdiyevich

Specific prophylactic against teileriosis in cattle.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published work.....43

**VETERINARIYA ILMIY TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD. 06/29.10.2021.V.139.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

VETERINARIYA ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

G‘OYIBNAZAROV QILICH XUDOYBERDIYEVICH

QORAMOLLAR TEYLERIOZINING MAXSUS PROFILAKTIKASI

**03.00.06 – Zoologiya
(veterinariya fanlari)**

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (RHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/V126 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (резюме) ilmiy kengash veb sahifasida (www.viti.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Gafurov Aktam Gafurovich
veterinariya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Daminov Asadullo Suvonovich
veterinariya fanlari doktori, professor

Isayev Jasur Muzaffarovich
veterinariya fanlari falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

**SamDTU huzuridagi L.M.Isayev nomidagi
mikrobiologiya, virusologiya, yuqumli va parazitlar
kasalliklar ilmiy-tadqiqot instituti**


Dissertatsiya himoyasi Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD06/29.10.2021.V.139.01 raqamli ilmiy Kengashning 2025-yil «12» 03 soat 14⁰⁰ majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141500, Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1 qishlog'i 67 uy. Tel.: (+9966) 666 56 30; faks: (+9966) 666-56-76; e-mail: nivi@vetgov.uz)

Dissertatsiya bilan Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (4695 - raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 141500, Samarqand viloyati, Toyloq tumani, Charog'bon MFY, Yangi Toyloq 1 qishlog'i 67 uy. Tel.: (+9966) 666 56 30; faks: (+9966) 666-56-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «02» 24 kuni tarqatildi.
(2025-yil «24» 02 dagi 5 -raqamli reestr bayonnomasi)




B.A. Elmurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
vet.fan doktori, professor


F.S. Pulotov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, vet.f.f.d., katta ilmiy xodim


G.H. Mamadullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, vet.fan
doktori, katta ilmiy xodim.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoning ko'pgina davlatlarida qoramollar teyleriozining keng tarqalishi natijasida kasallanish darajasi ko'paymoqda. Teylerioz Respublikamizning barcha hududlarida ham keng tarqalgan bo'lib, chorvachilikka, ayniqsa xorijdan keltirilgan zotli va qimmatbaho qoramollar mahsuldorligiga, katta to'sqinlik qilish bilan bir vaqtda sezilarli iqtisodiy zarar etkazib kelmoqda. «Teylerioz hayvonlarning barcha parazitlar kasalliklari orasida eng xavfli kasallik bo'lib, bunda kasallangan hayvonlarning 80 foizgacha o'limi, sut mahsuldorligining pasayishi, vazning kamayishi va go'sht sifatining yomonlashuvi sodir bo'ladi»¹. Shuning uchun hayvonlarning teylerioz kasalligiga o'z vaqtida tashxis qo'yish va oldini olishda maxsus profilaktik vositalarni yaratish va veterinariya amaliyotiga tadbiq etish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Dunyo miqyosida so'nggi yillarda qoramollar teyleriozining tarqalishi, mavsumiy dinamikasi, zamonaviy usullarda tashxis qo'yish, davolash va oldini olish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Bugungi kunda qon-parazit kasalliklariga qarshi kurash va oldini olishda hududlarning bioekologik omillarini inobatga olgan holda mahalliy shtammlar asosida teyleriozga qarshi immunitet hosil qiluvchi emlamalarni ishlab chiqish borasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda mustaqillik yillarida yuzaga kelgan chorvachilikni yuritish tizimining yangi shakllari, xorijiy davlatlardan zotli va qimmatbaho qoramollarni yurtimizga keltirilishi, qoramollarning qon-parazit kasalliklarining tarqalishi va epizootologiyasida ro'y bergan o'zgarishlar kasallikka qarshi davolash va profilaktika tadbirlarining takomillashgan zamonaviy usullarini va uslub-vositalarini ishlab chiqish, import o'rnini bosadigan mahalliy davolash-profilaktika vositalarini yaratishni talab etmoqda. Shu nuqtai nazardan hududlarda qoramollar qon-parazit kasalliklarini epizootologik holatini nazoratda tutish, samarador uslublar va vositalar ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim va dolzarb vazifa bo'lib hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»²gi PF-60-sonli Farmoni, 2020 yil 25 noyabrdagi PQ-4899-son «Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi, 2021-yil 31-martdagi PQ-5017-son «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar

¹ Мовсесян С.О. Формирование паразитофауны овец в условиях содержания на ограниченных пастбищных территориях предгорной зоны Армении / С.О.Мовсесян, Г.А.Бояхчян, Ф.А.Чубарян и др. // Российский паразитологический журнал. - 2013. - № 1. - С.16-23.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni.

to'g'risida»³ qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 iyuldagi 564-son «Veterinariya dori vositalarini ishlab chiqarishning yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»⁴, 2021-yil 12-iyuldagi «Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risida»⁵gi 434-son qarorlarida ko'zda tutilgan hamda boshqa meyoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya doirasidagi tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorij olimlaridan A.Ahmed, A.Adler, V.Ellendogen, R.Bishop, L.Coggeshall, R.Hashemi-Feshaki, E.Sergent, B.Shimizu, mustaqil hamdo'stlik davlatlaridan N.I.Stepanova, L.P.Dyakonov, V.T. Zabloskiy, N.A.Zolatayev, A.A.Agaev, A.K.Mavsumzode, G.N.Shaxmatov, R.X.Noraev, A.A.Mirzabekovlar tomonidan teyleriozining tarqalishi, mavsumiy dinamikasi, zamonaviy usullarda tashxis qo'yish, davolash va oldini olish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, qolaversa, qoramollar teyleriozini turli iqlim mintaqalarda tarqalish darajasi, kasallik qo'zg'atuvchisining immunobiologik va morfologik xususiyatlari aniqlangan. Respublikamiz olimlari P.N.Li, K.A.Arifdjanov, A.V.Bogorodiskiy, I.X.Rasulov, O.A.Oripov, T.X.Raximov, E.K.Shmunk, A.G'.G'afurov, O'.I.Rasulov, N.J.Turaboyev, V.M.Dusqulov, S.Q.Qo'chqarova, J.N.Baratov va N.U.Karimovalar tomonidan O'zbekiston hududlarida qoramollar teyleriozining epizootik holatini o'rganish va ularga qarshi davolash-profilaktika chora tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda hozirgi davrga qadar ishlab chiqilgan ilmiy ishlanmalar vaqt o'tgani sababli o'z mavqeyining pasayishi hamda yurtimiz hududlarida xo'jalik yuritishning yangi shakllari klasterlar, fermer, shirkat, yordamchi va dehqon fermer xo'jaliklarining tashkil etilishi, yaylovlarni gidromeliorativ holatining o'zgarishi sababli qoramollarda qon-parazitar kasalliklarning tarqalish darajasini mukammal darajada o'rganish, oldini olishdagi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, ularga qarshi xo'jalik yuritish sharoitiga mos zamonaviy samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish va veterinariya amaliyotiga joriy qilish dolzarb vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti Protozoologiya laboratoriyasi ilmiy-tadqiqot rejasining ITD-DVK "Qoramollarning piroplazmidozlariga qarshi

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Chorvachilik tarmoqlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida »gi PQ-5017-sonli Qarori.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 iyuldagi «Veterinariya dori vositalarini ishlab chiqarishning yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 564-sonli Qarori.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik xo'jaliklariga ular tomonidan yetishtirilgan va sotilgan mahsulotlar uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risida»gi 434-sonli Qarori.

zamonaviy chora-tadbirlarni ishlab chiqarish va amaliyotga joriy qilish” (2021-2025 yy.) hamda “Qoramollar qon-parazitar teylerioz kasalligiga qarshi vaksina yaratish” mavzusidagi A-VQ-2021-486 raqamli ilmiy-amaliy loyiha dasturi (2022-2023 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi qoramollar teylerioziga qarshi maxsus profilaktik vosita ishlab chiqish va uning reaktogenlik va immunogenlik xususiyatlarini eksperimental tajribalarda va ishlab chiqarish sharoitida o‘rganish hamda amaliyotga joriy qilish.

Tadqiqotning vazifalari:

Qashqadaryo viloyat tog‘ oldi hududlarida qoramollar teyleriozining epizootologik holatini o‘rganish;

Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlarining chorvachilik xo‘jaliklarida teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vosita ishlab chiqarish uchun *Theileria annulata* shtammini ajratish;

har xil hududlardan ajratilgan *Th.annulata* shtammini virulentlik va morfologik xususiyatlarini eksperimental tajribalarda aniqlash va past virulentli shtamm ajratish;

Th.annulata ning sun‘iy ozuqa muhitlarida kultural xususiyatini o‘zlashtirish va maxsus profilaktik vosita materialini olish;

qo‘zg‘atuvchi materialining reaktogenlik va immunogenlik xususiyatlarini eksperimental tajribalarda o‘rganish;

teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vositani veterinariya amaliyotiga joriy qilish va uning samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot ob‘ekti sifatida tajriba mollari, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyat chorvachilik xo‘jaliklaridagi, shaxsiy aholi qaramog‘idagi teylerioz va piroplazmoz bilan kasallangan turli yoshdagi qoramollar, ulardan yig‘ilgan kasallik tarqatuvchi kanalar, kasallik qo‘zg‘atuvchi parazitlar va antiparazitar preparatlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning predmeti bo‘lib teylerioz bilan kasallangan qoramollardan olingan qon va qon surtmalari, limfa tugunlari, ularning klinik, immunologik, gematologik ko‘rsatkichlari, ajratilgan *Th.annulata* shtamlari va teyleriozni oldini olishda foydalanilgan maxsus profilaktik vositaning va antiprotozoj preparatlarning ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Tadqiqotni usullari. Ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda epizootologik, klinik, parazitologik, gematologik, mikroskopik, patologoanatomik hamda statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi qo‘yidagilardan iborat:

Ilk bor Qashqadaryo viloyati tog‘ oldi hududlarida qoramollar orasida teyleriozning epizootologik holati o‘rganilgan va ularning 7,6 foizi teylerioz bilan kasallanganligi aniqlangan;

har xil hududlardagi qoramollardan topilgan *Th.annulata* shtammini virulentlik va morfologik xususiyatlari eksperimental tajribalarda o‘rganilgan hamda teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vosita ishlab chiqarish uchun past virulentli shtammlar ajratilgan;

qoramollar teylerioz kasalligiga qarshi kultural vaksinaning tajriba seriyasi ishlab chiqilib uning reaktogenlik va immunogenlik xususiyatlari aniqlangan hamda texnologik reglamenti ishlab chiqilgan;

Ilk bor qoramollarning teylerioz kasalligiga qarshi maxsus profilaktik vosita veterinariya amaliyotiga joriy qilingan va uning profilaktik samaradorligi 6 oygacha bo'lgan muddatni tashkil etishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo viloyatining tog' oldi hududlarida qon-parazitar kasalliklarning epizootologik holati, tarqalish sabablari, uchrash darajasi va mavsumiy dinamikasi aniqlangan;

qoramolchilik xo'jaliklarida qoramollar teylerioziga qarshi maxsus profilaktik vosita ishlab chiqilib veterinariya amaliyotiga joriy qilinganligi kasallikdan keladigan iqtisodiy zararlarning oldi olishga olib keladi;

amaliyot uchun ishlab chiqilgan qoramollar qon-parazitar kasalliklarining zamonaviy diagnostikasiga oid hamda davolash va oldini olish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar hamda amaliy tavsiyanomalar xo'jaliklarni ushbu kasalliklardan sog'lomlashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda o'tkazilganligi, epizootologik, parazitologik, klinik, gematologik, patologoanatomik usullardan foydalanish va boshlang'ich ma'lumotlarga ishlov berish, shuningdek olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining laboratoriya va amaliyot tajribalari bilan taqqoslanganligi, shuningdek, olingan natijalarning mutaxassislar tomonidan tasdiqlab baholanganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qoramollar teyleriozining Qashqadaryo viloyati tog' oldi hududlarida tarqalish darajasining aniqlanganligi va shu asosda qon-parazitar kasalliklarni bartaraf qilishda ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni yaratish hamda qoramollarda teyleriozni oldini olishda zarur bo'lgan tizimning nazariy asoslarini ishlab chiqqanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Qashqadaryo viloyatining tog' oldi hududlarida qoramollar qon-parazitar kasalliklarini tarqalish darajasi tahlil qilinganligi, teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vositaning tajriba seriyasi yaratilganligi va uni amaliyotda qo'llash natijasida yurtimizda ilk bor teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vosita ishlab chiqilib, veterinariya amaliyotiga tadbiq qilinganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qoramollar teyleriozining maxsus profilaktikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalari asosida:

“Qishloq xo'jalik hayvonlarining protozozlari” (2022 y.), “Qoramollar teyleriozining diagnostikasi” (2023 y.) bo'yicha qo'llanmalar hamda “Qoramollarning qon-parazitar kasalliklariga qarshi chora-tadbirlar” ga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 9-oktabrdagi 02/23-2304-son

ma'lumotnomasi). Natijada qoramolchilik xo'jaliklarida qon-parazitar kasalliklarni zamonaviy diagnostikasida, davolashda va maxsus profilaktika qilishda ilmiy asos bo'lgan hamda xo'jaliklarni ushbu kasalliklardan sog'lomlashtirish imkoni yaratilgan;

Qoramollar teylerioziga qarshi maxsus profilaktik vosita – “Qoramollar teylerioz kasalligiga qarshi kultural vaktsina” va uning texnologik reglamenti yaratilgan va ilmiy ishlanma ishlab chiqarish sharoitida Kitob tumanining "Do'stboy chorva" fermer xojaligidagi qoramollarda sinovdan o'tkazilgan (Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasining 2024-yil 9-oktabrdagi 02/23-2304-son ma'lumotnomasi). Natijada qoramollar teylerioz kasalligiga qarshi kultural vaktsinasi ilk bor veterinariya amaliyotiga joriy qilingan va 100 foiz profilaktik samaradorlikka erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotlar natijalari jami 7 ta, shu jumladan 4 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining Uslubiy va Ilmiy kengash majlislarida (2022-2024 yy.) muhokama qilingan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta, jumladan, 6 tasi Respublika va 1 tasi nufuzli xorijiy jurnallarda nashr etilgan. Olingan natijalar asosida 1 ta Uslubiy qo'llanma va 1 ta Tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, amaliyotga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 109 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zarurati, mavzuning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, tadqiqotning vazifalari, tadqiqotning ob'ekti, tadqiqotning predmeti, tadqiqotning uslublari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.


Dissertatsiyaning “**Adabiyotlar ma'lumotlarining tahlili**” deb nomlangan birinchi bobi to'rt qismdan iborat bo'lib, “Qoramollar teylerioz kasalligi qo'zg'atuvchisining xususiyatlari” deb nomlangan birinchi qismida jahon miqyosida qoramollarni pirop plazmidoz kasalliklari va uni qo'zg'atuvchilarini o'rganishga katta asos solinganligi bildirilgan va Respublikamiz mustaqilligi davrida esa qoramollar pirop plazmidoz kasalliklarini tarqalish jarayoni, kasallik qo'zg'atuvchilarini (teylerioz, pirop plazmoz, babezioz) tabiiy xususiyatini o'rganish

to'g'risidagi xorijiy va Respublikamiz ilmiy-tadqiqotchilarining adabiyot manbalari tahlil qilingan. **“Teylerioz kasalligining tarqalishida iksod kanalarining roli”** deb nomlangan ikkinchi qismida Iksod kanalari azaldan tabiatda keng tarqalganligi va shu bilan bir vaqtda chorvachilikni rivojlantirishda katta iqtisodiy zarar yetkazib kelayotganligi bildirilgan. Aksariyat hollarda Iksod kanalari inson va hayvonlarni turli xil invazion va infeksiyon kasalliklari epizootologiyasida katta ahamiyatga ega ekanligi uqtirib o'tilgan. Iksod kanalari hayvon yoki inson tanasiga turli xil invazion va infeksiyon kasallik qo'zg'atuvchilarini sog'lom mol yoki inson tanasida parazitlik qilish orqali yuqtirishi aniqlangan. **“Qoramollar qon-parazitlar kasalliklarining tarqalishi va iqtisodiy zarari”** deb nomlangan uchinchi qismida xorijiy va yurtimiz olimlari tomonidan Afrika qit'asida va Osiyo davlatlarida qoramollarni piroplazmoz, teylerioz, anaplazmoz kasalliklari keng tarqalganligi va undan kelayotgan iqtisodiy zarar millionlab dollarni tashkil qilayotganligi aniqlangan. **“Piroplazmidozlarni davolash va profilaktika qilishning ilmiy asoslari”** deb nomlangan to'rtinchi qismida qoramollar qon-parazitlar kasalliklari-teylerioz, piroplazmoz, babezioz kasalliklarining qo'zg'atuvchilari aniqlanib, kasalliklarning tabiati o'rganila boshlangandan buyon, tadqiqotchilarning asosiy e'tibori ularning oldini olish va davolash ishlarini olib borishga qaratilgan, natijada qoramollar qon-parazitlar kasalliklariga qarshi xorij va yurtimizda maqsadli ravishda ishlab chiqarilgan preparatlarning samaradorligi o'rganilganligi hamda amaliyotga tadbiq etilganligi borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining qisqacha tasnifi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot materiallari va uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar joyi, ob'ekti va ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda epizootologik, klinik, parazitologik, gematologik, patalogoanatomik va statistik usullaridan foydalanilganligi ma'lum qilingan. Ilmiy-tadqiqot ishlari 2022-2024 yillar davomida Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutining protozoologiya laboratoriyasi va Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Navoiy viloyatlari chorvachilik xo'jaliklarida va aholining shaxsiy chorva mollarida olib borilgan tadqiqotlarda qoramollarning periferik qon tomirlaridan olingan qon namunalari va qon surtmalari, ularni parazitologik tekshirish, parazitlar bilan zararlanish darajasini va parazitlarning morfologik xususiyatlarini aniqlash, hududlardan kasallikni tarqatuvchi *Hyalomma anatolicum* va *Hyalomma detritum* kanalarini terish va saqlash, ulardan generatsiya olish, kanalar bilan zararlanish darajasini hamda biologik xususiyatlari o'rganish, *Th.annulata* shtammining shizogonal bosqichini ajratib olish va uni sun'iy to'yimli ozuqa moddalarda o'stirish, kriokonservatsiya qilib, kriobank tashkil qilish va undan qoramollar teylerioz kasalligiga qarshi kultural vaksina tayyorlash hamda qo'llash usullari batafsil keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Xususiy tadqiqot natijalari”** deb nomlangan uchinchi bobining birinchi qismida **“Qashqadaryo viloyatining tog' oldi hududlarida qoramollar teyleriozining epizootik holati”** borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qashqadaryo tog' etaklarining Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' tuman chorvachilik fermer xo'jaliklari, qishloq aholisi qoramollarida teyleriozni epizootologik holatini o'rganish, teylerioz bilan spontan kasal mollaridan

shtammlar ajratish, ajratilgan shtammlarning biologik, morfologik xususiyatlarini o‘rganish va shtammlarni kriokonservatsiya qilish ishlari olib borilganligi to‘g‘risida ma‘lumot berilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Kitob tumani “Do‘stboy chorva” fermer xo‘jaligida mavjud 180 bosh qoramoldan yoz mavsumi davomida 5% teylerioz va 1,6% pirop plazmoz, Shahrisabz tumani Miraki qishloq aholisi qoramollaridan 170 bosh jumladan, 7,6% teylerioz, 5,3% pirop plazmoz, Yakkabog‘ tumani “Adiba” fermer xo‘jaligida 120 bosh qoramoldan 4,1% teylerioz, 2,5% pirop plazmoz bilan kasallanishi kuzatilgan (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyatining tog‘ oldi hududlarida qoramollar pirop plazmoz va teyleriozining mavsumiy dinamikasi.

“Qashqadaryo viloyatining tog‘ oldi hududlarida qoramollar qon-parazitar kasalliklari qo‘zg‘atuvchilarini organizmda tashuvchanlik xususiyatlari” deb nomlangan 3-bobning 2-qismida mavjud qoramollarda parazit tashuvchilik holati o‘rganilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qashqadaryo viloyatining tog‘ oldi hududlarida qoramollardan olingan qon surtmalarida 40 foizgacha eritrotsitlar teyleriyalar va 20 foizgacha pirop plazmalar bilan zararlanganligi kuzatildi, babeziyalar esa kuzatilmagan. “Qashqadaryo viloyat tog‘ oldi hududlarida qoramollar qon-parazitar kasalliklarini tarqatuvchi kanalar faunasi” deb nomlangan 3-bobning 3- qismida olib borilgan tadqiqotlar natijasida “Do‘stboy” fermer xo‘jaligida 12 foizgacha qoramollar *B.calcaratus*, 24 foizgacha *H.anatolicum*, Miraki qishloq aholisi qoramollari 14 foizgacha *B.calcaratus*, 22 foizgacha *H.anatolicum*, “Adiba” fermer xo‘jaligi mollari 12 foizgacha *B.salcaratus*, 21 foizgacha *H.anatolicum* kanalari bilan zararlanganligi aniqlangan va shu bilan bir vaqtda *H.detrutum* kanalari tarqalmaganligi kuzatilgan (1-jadval, 2-rasm).


Qashqadaryo viloyat tog‘ oldi hududlarida qoramollar qon-parazitar kasalliklarini tarqatuvchi kanalar faunasi

T/r	Xo‘jalik nomi	Tekshirilgan qoramol soni	B.calcaratus, %		H.anatolicum, %		H.detrutum, %	
1	Kitob tumani “Do‘stboy” fermer xo‘jaligi	180	12	7	24	13	0	0
2	Shaxrisabz tumani Miraki qishloq aholisi qoramollari	170	14	8,2	22	13	0	0
3	Yakkabog‘ tumani “Adiba” fermer xo‘jaligi	120	12	10	21	17,5	0	0
	Jami	470	38	8,0	67	14,2	0	0


Ushbu olib borilgan tadqiqotlar natijalariga binoan Qashqadaryo viloyatining tog‘ oldi hududlarida piroplazmoz, babezioz va teyleriozga qarshi chora-tadbirlarni yil boshidan ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish tavsiya qilinadi.

Dissertatsiyaning **“Qoramollar teylerioziga qarshi maxsus profilaktik vosita ishlab chiqish”** deb nomlangan 4-bobning **“Teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vosita yaratish uchun Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlari chorvachilik xo‘jaliklarida past virulentli *Theileria annulata* shtammini ajratish”** deb nomlangan 4.1 bo‘limida bir-biridan geografik iqlim sharoiti bilan farq qiladigan har xil hudud va chorvachilik yuritishi turli xil bo‘lgan Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani Mo‘g‘ol qishloq aholisi, Navoiy viloyati “Istiqbol” va Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani “Oltinsoy” fermer xo‘jaliklarida teylerioz bilan spontan kasal qoramollardan epizootik shtammlar ajratildi, ajratilgan shtammlar ro‘yxatdan o‘tkazildi, pasportlashtirildi hamda kriokonservatsiya qilinib, kriobank tashkil qilindi.


“*Theileria annulata* ning patogenlik (virulentlik) va morfologik xususiyatlarini o‘rganish” deb nomlangan ushbu bobning 2-qismida *Theileria annulata* ning patogenlik xususiyatlarini o‘rganish Bulung‘ur tumani hududidan ajratilgan shtamm (B24-07/22) bilan 1-guruh, Karmana tumani hududidan ajratilgan shtamm (C21-07/22) bilan 2-guruh, Rashidov tumani “Oltinsoy” xo‘jaligi hududidan ajratilgan shtamm (C28-07/22) bilan 3-guruh qoramollarini terisi ostiga 20 ml dan yuborib yuqtirildi. Tajriba mollarida har kuni 20 kun davomida klinik va parazitologik tekshirishlar olib borildi (2-jadval).



**Kitob tumani
“Do‘stboy” fermer
xo‘jaligi**



**Shahrisabz tumani Miraki
qishloq aholisi qoramollari**



**Yakkabog‘ tumani “Adiba”
fermer xo‘jaligi**

2-rasm. Qashqadaryo viloyatining ayrim tumanlari kesmida qon parazitlar kasalliklar qo‘zg‘atuvchilarining uchrashi.

Har xil geografik iqlim hududlardan ajratilgan *Theileria annulata* ning patogenlik xususiyatlarini o'rganish natijalari

Gr	Bosh soni	Yuqtirish shtammi	Yuqtirishdan so'ng 16-kun		Yuqtirishdan so'ng 18-kun		Yuqtirishdan so'ng 20 kun	
			T°C	P/r %	T°C	P/r %	T°C	P/r %
1	3	Samarqand viloyati, yumshoq va namlik hududdan ajratilgan shtamm (B24-07/22)	39,6	-	39,7	-	40,4	2+-0,02
2	3	Navoiy viloyati, quruq va issiq hududdan ajratilgan shtamm (C21-07/22)	40,5	2+-0,02	41,1	4+-0,04	41,6	12+-0,03
3	3	Jizzax viloyati quruq va issiq hududdan ajratilgan shtamm (C28-07/22)	40,6	3+-0,02	40,9	5+-0,02	41,3	9+-0,02

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Samarqand viloyati Bulung'ur tumani hududidan ajratilgan shtamm bilan yuqtirilgan mollarda kasllikni klinik belgilari va qonda parazitlar reaksiyasi yuqtirishdan keyin 20 kuni, shunga nisbatan Jizzax va Navoiy viloyatlari hududlaridan ajratilgan shtamm bilan yuqtirilgan mollarda yuqtirishdan keyin 16-kuni teyleriozni klinik belgilari va qonda parazitlar reaksiya namoyon bo'ldi.

Shunday qilib, Samarqand viloyati hududidan ajratilgan shtammning patogenlik xususiyati Navoiy va Jizzax viloyati hududlaridan ajratilgan shtamlarni patogenlik xususiyatidan nisbatan past ekanligi aniqlandi.

“Har xil geografik iqlim hududlaridan ajratilgan *Theileria annulata* ning morfologik va qonning gematologik ko'rsatkichlari” deb nomlangan ushbu bobning 3-qismida Samarqand viloyati hududidan ajratilgan shtamm bilan yuqtirilgan mollarda teyleriyalarning yumaloq shakli 27,6, oval shakli 40,3, vergulsimon shakli 20,3, nuqtasimon shakli 9 foizni tashkil qildi, xochsimon shakli uchramadi, Navoiy viloyati hududida ajratilgan shtamm bilan yuqtirilgan tajriba mollarida teyleriyalarning yumaloq shakli 21,6, oval shakli 34,6, vergulsimon shakli 27, nuqtasimon shakli 14 va xochsimon shakli 3 foizgacha kuzatildi, Jizzax viloyati hududidan ajratilgan shtamm bilan yuqtirilgan mollarda teyleriyalarning yumaloq shakli 26, oval shakli 35,3, vergulsimon shakli 26,6, nuqtasimon shakli 12,6 va 3 foizgacha xochsimon shakli kuzatildi (3-jadval).

Har xil geografik iqlim hududlaridan ajratilgan *Theileria annulata* ning morfologik ko'rsatkichlari.

Hudud va iqlim xususiyati	Qoramol raqami	Teylerioz qo'zg'atuvchilarining morfologik ko'rsatkichlari (%)				
		Yuma loq	Oval (tuxum simon)	Vergul simon	Nuqtasimon	Xoch (krest) ko'rinishda
Samarqand, yumshoq va nam	1	29	41	21	9	-
	2	28	42	19	11	-
	3	26	39	21	14	-
	O'rtacha	27,6	40,3	20,3	11,3	-
Navoiy, quruq va issiq	1	22	38	24	12	2
	2	18	34	29	16	3
	3	25	32	28	14	1
	O'rtacha	21,6	34,6	27	14	2
Jizzax, quruq va issiq	1	24	30	29	15	2
	2	29	36	21	14	-
	3	25	37	30	9	-
	O'rtacha	26	35,3	26,6	12,6	1

Shunday qilib, ushbu ko'rsatkichlar Samarqand viloyati hududidan ajratilgan shtammning Navoiy va Jizzax viloyati hududlaridan ajratilgan shtamlardan virulentligi past ekanligidan dalolat beradi. Har xil viloyat hududlaridan ajratilgan shtamm bilan yuqtirilgan tajriba mollarida gematologik tekshirish natijasida Samarqand viloyatidan ajratilgan shtamm bilan yuqtirilgan mollarda eritrotsit, leykotsit va gemoglobinni miqdori Navoiy va Jizzax viloyatidan ajratilgan shtamm bilan yuqtirilgan mollarga nisbatan kam o'zgarish berishi kuzatildi. Natijada, bunday ko'rsatkichlar Samarqand viloyati hududidan ajratilgan shtammdan teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vosita tayyorlashga asos bo'ldi.

“Sun'iy ozuqa moddalarda hujayralarning kultural xususiyatlarini o'rganish” deb nomlangan 4-bobning 4-qismida hujayralar kulturasini shu jumladan teylerioz qo'zg'atuvchisi shizogonal bosqichini, sun'iy to'yimli ozuqa moddalarda kultivatsiya qilish texnologiyasining zamonaviy usullarini o'zlashtirishda rivojlangan davlatlar tajribasini o'zlashtirish tayanish uchun Belorussiya davlatining Eksperimental veterinariya instituti mikrobiologiya laboratoriyasida qisqa muddatlik malaka oshirishda bo'lindi va rejalashtirilgan ishlar amalga oshirildi. Reja-grafik asosida kultural xujayralarning o'sish prinsipi haqida batafsil ma'lumotlar olindi, kulturalarni o'stirish uslubi o'zlashtirildi. Hujayralarni o'stirishda zarur bo'lgan asbob uskunalar, sun'iy to'yimli ozuqa moddalar, reaktivlar kultural idishlar va boshqa zarur ma'lumotlar olindi.

“*Theileria annulata* ning shizogonal bosqichini sun’iy ozuqa moddada o‘stirish va maxsus vosita materialini olish” deb nomlangan 4 bobning 5-bo‘limida Samarqand viloyati Bulung‘ur tumani Mo‘g‘ol qishlog‘i aholisi qoramolidan ajratilgan va eksperimental tajribalarda reaktogenligi past deb aniqlangan shtamm bilan bir bosh mol yuqtirildi. Yuqtirilgan molda har kuni klinik va parazitologik tekshirishlar olib borildi. Tajribadagi molda teyleriozni klinik belgilari va parazitar reaksiya maksimal darajaga yetgach hayvon qonsizlantirildi. Aseptik sharoitda parenximatoz limfa tugunlari spirt fakeli ostida steril asboblar bilan yig‘ishtirib olindi. Keyinchalik aseptik sharoitda limfatik tugunlar po‘stloqdan tozalandi va tayyorlangan parenxima, qaychi bilan mayda-mayda qilib assessolizatsiya qilish uchun kolbaga solindi va assessolizatsiya qilindi. Maydalangan to‘qimaga 36 haroratgacha isitilgan assessoldan 1:7 ga nisbatan qo‘shildi. Assessolizatsiya qilish 20 daqiqa davomida to‘qimalar titratorda 3 marta qo‘zg‘atildi. Hujayralarni yuvish tiniq suyuqlik olinguncha olib borildi.

Sun’iy to‘yimli ozuqa moddalarda o‘stirish uchun 20% qon zardobi va 20% Sreda Igla ga 100 yed antibiotik (seftriakson) qo‘shilgan kultural massani 100 ml lik va 1,5 litrli matraslarga mutanosib ravishda 100 va 250 ml dan quyildi. Matraslar rezina tiqin bilan yopildi va shundan so‘ng +37°C xaroratli termostatga joylashtirildi. Hujayralarni faol rivojlanishi natijasida 5-6 kunda to‘yimli moddalarda kultural muhit pH 7,4 dan 7,0-6,8 gacha pasayishi kuzatildi. Bunday paytda to‘yimli ozuqa moddalar qisman almashtirildi. Buning uchun 1/3-1/4 kultural suyuqlik to‘kildi va qolgan hujayralarni 10 daqiqa davomida 1500 ayl/daq tezlikda sentrifugada aylantirildi, shundan so‘ng cho‘kmani ustki qismi to‘kildi va xujayralar boshlang‘ich qismgacha toza to‘yimli ozuqa moddalar bilan qaytatdan suspenziyalashtirildi. Suspenziya kulturalarini o‘stira boshlashdan 5-6 kuni qayta ekildi, muhitni to‘liq almashtirish bir oyga bir marta qilindi. Uning uchun kultural suyuqlikni 15 daqiqa davomida 1000 ayl/daq tezlikda sentrifuga qilindi. Suspenziyaning yuqori qismi tashlandi, xujayralar yangi to‘yimli ozuqa moddalar bilan resuspenziya qilindi, suspenziyaning yuqori qismi tashlandi, xujayralar yangi to‘yimli ozuqa moddalar bilan resuspenziya qilindi, keyin esa suspenziyani yangi kultural idishlarga solindi (3-4-rasmlar).

42-kuni matrasdan kultural suyuqlik boshqa bir steril idishga xujayralari bilan yig‘ildi. Bo‘shagan kultural idishlarda yopishib turgan xujayralarni yig‘ishtirib olish uchun +37°C isitilgan assessol solindi. O‘sha kultural suyuqlik 1,5 litrli matraslarga solinib 15 daqiqaga termostatga joylashtirildi. O‘sha vaqt ichida xujayralarni idish yuzasidan ajratish va bir joyga to‘plash uchun 2-3 marta qo‘zg‘atildi. Yig‘ishtirilgan kultural suspenziya teyleriozga qarshi suyuq kultural vosita bo‘lib hisoblandi, shundan keyin ampulalarga solinib suyultirilgan azotda kriokonservatsiya qilindi.

Shunday qilib, teylerioz qo‘zg‘atuvchisi *Th.annulata* ning shizogonal bosqichini sun’iy to‘yimli ozuqa moddalarda o‘stirish natijasida teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vosita olindi va u suyultirilgan azotda kriokonservatsiya qilindi.



3-4-rasmlar. Asesolizatsiya qilingan suspenziyani tayyorlash jarayoni.

“Eksperimental tajribalarda teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vositaning reaktogenlik xususiyatini o‘rganish” deb nomlangan 4-bobning 6-qismida tajribalar 6 bosh 8-9 oylik mollarda olib borilgan. Tajribadagi mollarni terisi ostiga 1,0 ml (300000 mikrob tanasi) terisi ostiga yuborib emlab chiqildi. 30 kun davomida olib borilgan klinik va gematologik tekshirishlar natijasida tajriba mollarida emlashdan keyin 30 kun davomida umumiy ahvoning o‘zgarmaganligi, ovqat hazm qilish organlarining normal holatda bo‘lishi, qon aylanish va nerv tizimi fiziologik me‘yorda bo‘lishi kuzatildi, tana harorati +39°C haroratgacha ko‘tarilishi va periferik qon tomirlaridan olingan surtmalarida eritrotsitlarni 0,1-0,2 foizgacha teyleriyalar bilan zararlanishi kuzatildi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vosita bilan emlangan qoramollarda maxsus profilaktik vositani reaktogenlik xususiyati yo‘qligi, parazitlar reaksiyaning namoyon bo‘lmasligi va shu bilan bir vaqtda gemopoezga hamda qonning shaklli elementlariga ham salbiy ta‘sir qilmasligi aniqlandi.

“Eksperimental tajribalarda teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vositaning immunogenlik xususiyatini o‘rganish” deb nomlangan 4-bobning 7-qismida emlangan 6 bosh va shunga nisbatan 2 bosh nazoratdagi mollarni laboratoriyada saqlanayotgan teylerioz shtammi bilan terisi ostiga 10 ml dan yuborib yuqtirildi. Kuzatuv davri davomida olib borilgan klinik va parazitologik tekshirishlar natijasida yuqtirishdan keyingi 18-19-kunlari nazoratdagi emlanmagan 2 bosh qoramollarning tana harorati 40,7-40,9°C ko‘tarildi, periferik qon tomirlaridan olingan qon surtmalarida eritrotsitlarning 7-9 foizgacha teyleriyalar bilan zararlanganligi aniqlandi. Tajribadagi 6 bosh qoramollarda esa 45 kun davomida olib borilgan klinik va parazitologik tekshirishlar natijasida umumiy

ahvolining fiziologik me'yorda bo'lishi, tana haroratining ko'tarilmaganligi va periferik qon tomirlaridan olingan surtmalarda parazitlar reaksiyaning faqatgina 0,1-0,2 foizgacha namoyon bo'lganligi va keyingi kunlarda parazitlar reaksiyasini rivoj topmaganligi aniqlandi.

Shunday qilib teyleriozga qarshi maxsus vositaning immunogenlik xususiyati 6 oygacha bo'lgan muddatni tashkil qilishi aniqlandi.

“Teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vositaning immunogenligini ishlab chiqarish sharoitida o'rganish” deb nomlangan 4-bobning 8-qismida tajribalar Qashqadaryo viloyatining Kitob tuman “Do'stboy chorva” fermer xo'jaligida 120 bosh katta va 55 bosh 2-6 oylik buzoqlarda olib borildi (4-jadval).

4-jadval

Teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vositaning immunogenlik samaradorligini ishlab chiqarish sharoitida o'rganish natijalari

Guruh	Bosh soni	Emlangan kun	Klinik va parazitologik tekshirish natijalari
1	120 bosh katta yoshdagi qoramollar	14-mart	Yoz mavsumi davomida teylerioz kuzatilmadi
2	55 bosh 2-6 oylik buzoqlar	14-mart	Yoz mavsumi davomida teylerioz kuzatilmadi
3	40 bosh nazorat	Emlanmagan	Yoz mavsumi davomida 3 bosh (7,5%) teylerioz bilan kasallandi

Shunga nisbatan 40 bosh nazorat guruhi olindi. Tajribadagi mollarning terisi ostiga 1,0 ml dan teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vosita qo'llanildi, nazoratdagi mollarga maxsus profilaktik vosita qo'llanilmadi. Yoz mavsumi davomida olib borilgan kuzatuvlar natijasida emlangan mollarda teylerioz bilan kasallangan mollar kuzatilmadi, ammo, nazoratdagi mollardan 3 boshi (7,5%) teyleriozning klinik belgilari va qonda parazitlar reaksiyani namoyon qilib kasallandi.

Shunday qilib, teyleriozga qarshi maxsus vositani ishlab chiqarish sharoitida profilaktik samaradorligi 6 oyni tashkil qilishi aniqlandi.

“Teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vositaning veterinariya amaliyotiga joriy qilish” deb nomlangan 4-bobning 9-qismida teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vosita immunogenlik xususiyatini O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish Qo'mitasining 02.02.24 y. 02/16-70-raqamli qaroriga asosan ishlab chiqarish sharoitida joriy qilish ishlari 2024 yilning mart oyida Qashqadaryo viloyatining Kitob tuman “Do'stboy chorva” fermer xo'jaligida 180 bosh katta 35 bosh mayda bosh buzoqlarda, Shaxrisabz tumani “Chukursoy shabbodasi” fermer xo'jaligidagi

135 bosh katta yoshdagi mollarida, Navoiy viloyatining Istiqbol fermer xo‘jaligida 180 bosh katta va 40 bosh yosh mollarida, Jizzax viloyatining “Turdibek” fermer xo‘jaligida 170 bosh katta yoshdagi va 10 bosh yosh, jami bo‘lib 750 bosh mollarni terisi ostiga 1,0 ml dan maxsus profilaktik vosita qo‘llab emlanildi (5-jadval).

5-jadval

Teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vositaning veterinariya amaliyotiga joriy qilishdan olingan natijalar

№	Xo‘jalik nomi	Xo‘jalikd a mavjud qoramol bosh soni	Shundan yoshlari bo‘yicha		Emlangan kun	Klinik va parazitologik tekshirish natijalari	Kuzatuv natijalari bo‘yicha emlashda n olingan samaradorlik (%)
			Katta yoshdagi qoramollar	Buzoqlar			
1	Kitob tumani “Do‘stboy” fermer xo‘jaligi	220	160	60	13.03.2024 yil	Teylerioz bilan kasallanmadi	100
2	Shahrisabz tumani “Chuqursoy shabbodasi”. fermer xo‘jaligi	130	90	40	15.03.2024 yil	Teylerioz bilan kasallanmadi	100
3	Karmana tumani “Istiqbol” fermer xo‘jaligi	220	180	40	19-20.03.2024 yil	2 bosh teylerioz bilan kasallandi	99,1
4	Sh.Rashidov tumani “Turdibek” fermer xo‘jaligi	180	170	10	18.04.2024 yil	2 bosh teylerioz bilan kasallandi	98,9
Jami:		750	600	150		4	99,4

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida yoz mavsumi davomida “Turdibek” va “Istiqbol” fermer xo‘jaliklaridagi katta yoshdagi mollardan iyul oyida har bir xo‘jalikda 2 boshdan mol teyleriozni klinik belgilarini va periferik qon tomirlaridan olingan surtmalarda parazitlar reaksiyani namoyon qilib kasallandi. “Do‘stboy chorva” va “Chuqursoy shabbodasi” fermer xo‘jaligida emlangan qoramollardan yoz mavsumi davomida teylerioz bilan kasal mol kuzatilmadi, umumiy samaradorlik 99,4 foizni tashkil qildi, sarflangan bir so‘m xarajatga 12,05 so‘m iqtisodiy samara olindi.

XULOSALAR

1. Qashqadaryo viloyatining tog‘ oldi hududlarida tekshirilgan 470 bosh qoramoldan 7,6 foizi teylerioz bilan kasallanganligi hamda 24 foiz qoramollar *H.anatolicum* bilan kanalanganligi aniqlandi.

2. Qashqadaryo viloyatining tog‘ oldi hududlarida boqilayotgan 90 bosh qoramollardan olingan qon surtmalarida eritrotsitlarning teyleriyalar bilan 40 foizgacha zararlanganligi aniqlandi.

3. Samarqand viloyatining nisbatan yumshoq iqlim, namligi yuqori va salqin bo‘lgan Bulungur tumani Zarafshon daryosi qirg‘og‘i hududida ajratilgan kasallik qo‘zg‘atuvchisining patogenligi Navoiy va Jizzax viloyati hududlaridan ajratilgan shtammlarning patogenlik xususiyatlariga nisbatan past ekanligi aniqlandi.

4. Samarqand viloyati hududidan ajratilgan *Th.annulata* ni morfologik tekshirishlar natijasida parazitning yumaloq shakli 40,3%, oval 26,7%, vergulsimoni 20,3% va nuqtasimon 11,3 foizni tashkil qildi, xochsimon shakli aniqlanmadi, bu *Th.annulata* ni past virulentligidan dalolat berdi. Navoiy viloyati hududlarida parazitning yumaloq shakli 21,6%, oval 34,6%, vergulsimon 27%, nuqtasimon shakli 14%, xochsimon shakli (Krest) 2%, Jizzax viloyatida yumaloq shakli 26%, ovalsimon shakli 35,3%, vergulsimon shakli 26,6%, nuqtasimon 14% va xochsimon shakli 2 foizni tashkil qildi, bu *Th.annulata* ni yuqori virulentligidan dalolat berdi.

5. Samarqand viloyati hududidan ajratilgan past patogen teyleriya shtammi bilan yuqtirilgan qoramol organizimida kasallik qo‘zg‘atuvchisi gemopoez jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatilmasligi aniqlandi.

6. Teylerioz qo‘zg‘atuvchisining shizogonal bosqichini sun‘iy oziqa muhitlarida o‘stirish natijasida “Teyleriozga qarshi maxsus profilaktik vosita” tayyorlandi va kriokonservatsiya qilinib, kriobank tashkil qilindi.

7. “Teyleriozga qarshi maxsus vosita” bilan emlangan qoramollar organizimida biopreparatning reaktogenlik xususiyati yo‘qligi va gemopoezga hamda qonning shaklli elementlari me‘yoriga salbiy ta‘sir qilmasligi aniqlandi.

8. Teyleriozga qarshi maxsus vositaning postvaksinal immun turg‘unligi 6 oyni tashkil etdi.

9. Teyleriozga qarshi maxsus vositani joriy etilishi natijasida sarflangan 1 so‘m xarajatning qoplanishi 12,05 so‘mga teng bo‘ldi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD 06/29.10.2021.В/139/01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ ВЕТЕРИНАРИИ**

НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ВЕТЕРИНАРИИ

ГОЙИБНАЗАРОВ КИЛИЧ ХУДОЙБЕРДИЕВИЧ

**СПЕЦИФИЧЕСКАЯ ПРОФИЛАКТИКА ТЕЙЛЕРИОЗА КРУПНОГО
РОГАТОГО СКОТА**

**03.00.06 – Зоология
(ветеринарные науки)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ВЕТЕРИНАРНЫМ НАУКАМ**

Самарканд – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером №B2024.2.PhD/V126

Диссертация доктора философии (PhD) по ветеринарным наукам выполнена в Научно-исследовательском институте ветеринарии.

Автореферат диссертации доктора философии (PhD) размещен на веб-странице Научного совета (www.viti.uz) и в информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net) на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)).

Научный руководитель:	Гафуров Ақтам Гафурович доктор ветеринарных наук, профессор
Официальные оппоненты:	Даминов Асадулло Сувонович доктор ветеринарных наук, профессор Исаев Жасур Музаффарович доктор философии (PhD) по ветеринарным наукам
Ведущая организация::	Научно-исследовательский институт Микробиологии, вирусологии, инфекционных и паразитарных заболеваний имени Л.М.Исаева при Самаркандском государственном медицинском университете


Защита диссертации состоится «12» 03 2025 г. в 14⁰⁰ часов на заседании научного совета присуждающего учёные степени PhD.06/29.10.2021.V.139.01 при Научно-исследовательском институте ветеринарии, по адресу: 141500. Тайлякский район, Чорогбон СМК. Новый Тайляк 1, дом 67.Тел.:(99866) 666-56-30; Fax;+(99866) 666-56-76 e-mail: nivi@vetgov.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института ветеринарии (зарегистрирована за № 4695). (Адрес: 141500. Тайлякский район, Чорогбон СМК. Новый Тайляк 1, дом 67.Тел.:(99866) 666-56-30; Fax;+(99866) 666-56-76 e-mail: nivi@vetgov.uz).

Автореферат диссертации разослан «24» 02 2025 года.
(протокол реестра № 5 от 24.02.2025 г.)




Б.А.Элмуродов
Председатель научного совета по
присуждению учёной степени, доктор
ветеринарных наук, профессор


Ф.С. Пулотов
Учёный секретарь научного совета по
присуждению учёной степени, доктор
философии (PhD) по ветеринарным
наукам, старший научный сотрудник


Г.Х.Мамадуллаев
Председатель научного семинара по
присуждению учёной степени, доктор
ветеринарных наук, старший научный
сотрудник

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время, в результате широкого распространения тейлериоза крупного рогатого скота, увеличивается степень заболеваемости по всему миру. Тейлериоз также широко распространён во всех регионах нашей Республики и наносит большой экономический ущерб животноводству, препятствуя повышению продуктивности, особенно породистых и высокоценных, животных. «Тейлериоз является самым опасным среди всех паразитарных заболеваний, при котором смертность заболевших животных достигает до 80%, снижается молочная продуктивность, теряется живая масса и ухудшается качество мяса»⁶. Поэтому, являются очень актуальными своевременная диагностика тейлериоза животных и разработка специфических средств профилактики и их внедрение в ветеринарную практику.

В последние годы в мировом масштабе изучены распространение тейлериоза крупного рогатого скота, сезонная динамика, разработаны современные методы диагностики и ряд мер борьбы. Основной целью научно-исследовательских работ, на сегодняшний день, является планирование разработки современных способов мер борьбы путём создания специфических средств профилактики крове-паразитарных заболеваний крупного рогатого скота на основе местных штаммов с учетом региональных биоэкологических факторов.

